

PAPER

TALABALARDA O'ZINI ANGLASH JARONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdunazarova Shoxro'za Shamsiddin qizi ¹

¹Mirzo Ulug'bek nomidagi Ozbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o'qituvchisi

* ruzashyusupova@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada talabalardagi o'z-o'zini anglash komponentlarining psixologik xususiyatlari yoritilgan. Ijtimoiy muhit bilan bog'liq xarakter sifatлари hamda o'zini anglash jarayoni rivojlanishi ilmiy va amaliy tadqiqot natijalari tahlili bo'yicha yoritilgan. Anglash jarayonlari ko'rsatgichlari bo'yicha talabalarning "Men" timsolini namoyon bo'lishi psixologik tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, olingan natijalarga ko'ra o'zini anglash jarayonining yoshiga xos psixologik xususiyatlari va tavsifalari keltirilgan.

Key words: Muloqatda o'zini nazorat qilish, o'ziga ishonch, o'ziga munosabat, o'zini boshqarish, o'zini baholash, o'zini qabul qilish, o'zini ayblash, o'ziga bog'langanlik.

KIRISH

O'z-o'zini anglash – bu o'zini aniq ko'rish qobiliyati ya'ni o'z e'tiborining obyektiga aylanish. Bu bizning xulq-atvorimizga va atrof-dagilarga bevosita va bilvosita psixologik ta'sir qiladi. Ushbu maqolada o'z-o'zini anglashning ma'nosi va talabalardagi o'z-o'zini anglash rivojlanishi bo'yicha joriy tadqiqotlar va nazariy tahlillar ko'rib chiqiladi. Talabalardagi o'zini anglash jarayonining psixologik xususiyatlarini bilish, ulardagi yoshga xos va ijtimoiy mavqeidagi ro'li funksiyasini bajarishdagi psixologik qiyinchilikni yengib o'tishiga qulay ijtimoiy psixologik muhit yaratish va munosabatda bo'lishga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda talabalardagi "Men" likni tog'ri shakllantirish kelgusida, ulardagi psixologik yoshga xos rivojlanish va qiyinchiliklarni yengishiga, ta'lim jarayonida bilimlarni to'liq samarali o'zlashtirishida katta ahamiyatga ega.

O'zini-o'zi anglashning shaxs psixik taraqqiyotidagi o'rni borasida bugunga qadar chet el olimlaridan, M. L. Skene, K. A. Houtmeyers, H. Flavian, L. W. Donna, V. Shehu, J. Yin, B. L. Tanishia, K. Hierl, R. Pearson, L. E. Davidson, T. B. Carter, J. A. Maksimeyko, O. N. Kozlova, O. B. Popova, E. Y. Vasilevskaya, O. S. Zolotareva va... larning turli yoshdagi bolalarda olib borgan o'zini-o'zi anglashning rivojlanishi, ta'sir etuvchi omillari borasidagi tadqiqotlarini keltirib o'tish lozim. Bundan tashqari psixologiya sohasida o'zlarining ilmiy va tadbqiq ishleri bilan ko'plab tadqiqotlarda hanuzgacha qo'llanib kelinayotgan chet el

olimlaridan:

L. S. Vigotskiyning muhit oliy psixik taraqqiyot manbai asosidagi "Tarixiy-madaniy nazariya"si, A. N. Leontevning ong va faoliyat birligi tamoyiliga asoslangan faoliyat nazariyasi, J. Kelli K. Rodgers va A. Masloularning shaxsiyatni o'rganishdagi nazariy qarashlari xizmat qildi. Yurtimizda psixologiya sohasiga o'z hissasini qo'shgan va faoliyat yuritib kelayotgan psixologlar (E. G. G'oziev, M. G. Davletshin, G. B. Shoumarov, V. M. Karimova, R. I. Sunnatova, B. R. Qodirov, Sh. R. Barotov, Z. T. Nishonova, O. B. Shamsiyev, ...) ilg'or fikrlari, shu asosida ilmiy va tadbqiq ish olib borgan ko'plab tadqiqotlari shaxs, uning takomillashuvi, o'zini -o'zi anglash borasidagi ishlari metodologik, nazariy manbaa sifatida foydalanildi.

L. S. Vigotskiyning shaxsiy fikricha, o'zini o'zi anglash turli xil ma'nolar o'rtasida birlikni (umumiylikni) vujudga keltirish jarayoni sifatida va o'zlashtirilgan ong tariqasida namoyon bo'ladi.

A. N. Leontev talqiniga qaraganda, individual (yakka shaxsga oid) ongda mohiyat bilan mazmun o'rtasidagi ziddiyat o'zini o'zi anglashning sababchisidir.

A. N. Leontevning shogirdi V. V. Stolinning uqtirishicha, o'zini o'zi anglashning asosida (negizida) "menlik"ning mazmunlari o'rtasidagi ziddiyat yotadi.

B. G. Ananov izlanishlarida aks etishicha, o'zini o'zi anglashning paydo bo'lish omili - odamning individual xususiyati,

faoliyat subyektiligi, shaxslilik xususiyatlarining tarkib topishidagi notekislik va geteroxronlikdir. Uning mulohazasiga ko'ra, o'zini o'zi anglash ana shu uchala xususiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi va xuddi shu tariqa ongning individualligini ta'minlab turadi.


S. L. Rubinshteynning o'zini-o'zi anglashni shakllantirishning manbai ong va undagi ziddiyat bo'lmasdan, balki insonning tarkib topishi va rivojlanishi sanaladi. Ruhiy faoliyatning maxsus holdagi (vaziyatdagi) obyektiv shart-sharoitlar sifatida odamlarning hayoti, umumiy yashash sharoiti deb yozadi. [1]

O'z-o'zini anglash mazmuni ichki va tashqi qismlarga ega. Ichki o'z-o'zini anglash bizning ta'sirlarimiz, e'tiqodlarimiz, idroklarimiz, qiziqishlarimiz, maqsadlarimiz, shaxsiyatimiz, qadriyatlarimiz va mazmunli hayot shakllarini o'z ichiga oladi. Tashqi o'z-o'zini anglash tashqi ko'rinish va xatti-harakatlarimizni idrok etishimizni o'z ichiga oladi. Tashqi o'z-o'zini anglash, shuningdek, o'z-o'zini anglashning ijtimoiy jihatini, ya'ni boshqalarning bizga aytganlariga nisbatan o'zimizni hurmat qilishimizni (teskari aloqa), odamlarning bizga qanday munosabatda bo'lishi va xatti-harakatlarimizning boshqalarga ta'siri haqidagi tasavvurlarimizni va boshqalarga qanchalik sezgir ekanligimizni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini anglashning ichki va tashqi tarkibiy qismlari nozik farqlarga ega bo'lgan, ammo o'z-o'zini anglash bilan sinonim sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan tushunchalarda yaqqol namoyon bo'ladi: o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini bilish (o'zimiz va atrofimiz haqida nima bilamiz) va o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini ko'rish (biz o'zimizni qanday ko'ramiz va boshqalar bizni turli xil ta'riflarimizda qanday ko'radi deb o'ylaymiz). O'z-o'zini anglash jarayoni o'zimiz haqida o'ylashni o'z ichiga oladi, bu bizga o'z xususiyatlarimizdan xabardor bo'lish, bu ongni saqlab qolish va o'z xatti-harakatlarimiz va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarimizda foydalanish imkonini beradi. Fikrlash jarayonlariga introspektiya, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini singdirish kiradi [2] O. Kozlova olib borgan shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyaning kelajakdagi mutaxassislar "Men" konsepsiyasi tuzilishidagi munosabatiga asosan olib borgan tadqiqotida ham bo'lajak mutaxassislarning o'zini-o'zi anglash tushunchasining o'ziga xosligi, shaxsiy inqirozlarni yengib o'ta olishi, ko'p qirrali va ko'p bosqichli bo'lajak mutaxassislarning konsepsiyasining o'ziga xosligini, sifat jihatlarini aniqlash, tarkibiy qismlar, uning quyi tizimlari nisbati dinamikasi, shaxsiy va ijtimoiy o'ziga xoslik, o'zini-o'zi anglashning kategorik holati va muhim xususiyatlariga aniqlik kiritgan. [3]

Yuqoridagi va boshqa ko'plab tadqiqotlarda olg'a surilgan nazariy va amaliy izlanishlarning asosiy negizida o'zini-o'zi anglash jarayonining maktabgacha yoshdan hatto bola tug'ilgandan o'ziga xos sodda ko'rinishda shakllanib borishini, bu jarayonning to'g'ri shakllanishida qulay ijtimoiy muhit ta'sirining naqadar muhim ekanligi, o'zini-o'zi anglash komponentlarining rivojlanib borishi bola keyingi yosh psixik rivojini, jismoniy salomatligini saqlashida muhim omillardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin.[5] O'z-o'zini anglash yagona qobiliyat sifatida emas, balki o'z-o'zini turli funktsiyalar bilan bog'liq jarayonlar to'plami sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Bolalarning kognitiv rivojlanishini o'z tadqiqot maqsadi qilgan taniqli olim Jan Piagetning ilmiy amaliy ishini tadqiqotimizda nazariy asosi bo'lgan yana bir muhim manba deb aytishimiz mumkin. O'zini-o'zi anglash komponentlari bola tug'ilgandan boshlab har bir yoshda tashqi obyektiv olam bilan o'zaro munosabat natijasida rivojlanib boradi. U bolalarning kognitiv rivojlanishini - fikrlash, bilish, eslash va muloqot qilish bilan bog'liq barcha aqliy faoliyatni o'rgangan. [4]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu ilmiy ishimizda talabalardagi o'zini anglashning kognitiv va ijtimoiy muhit bilan bog'liq xususiyatlari bilan bog'liq holda rivojlangan o'zini anglash komponentlarini aniqlash maqsadida amaliy tadqiqot o'tkazdik. Tadqiqot ishimizda 195 nafar sinaluvchi ishtirok etgan. Shulardan 100 nafar ayol va 95 nafar erkak kishini tashkil etdi. (1-diagramma)



V.V.Stolin va S.R.Pantileevlar tomonidan "O'z-o'ziga bo'lgan munosabatni o'rganish" metodikasi bo'yicha o'tkazgan tadqiqotimiz natijalarini quyidagi 1-jadvalda aks ettirdik.

Table 1. "O'z-o'ziga bo'lgan munosabatni o'rganish" metodikasida olingan natijalar statistikasi

Ko'rsatgichlar	O'rtacha qiymat
Ochiqlik_yopiqlik	6,7897
O'z_o'ziga_ishonch	9,4205
O'zini_boshqarish	7,8487
O'ziga_munosabat	6,3282
O'zini_baholash	9,9179
O'zini_qab_qil	8,1026
O'ziga_bog'langanlik	6,6000
Ichki_nizokashlik	7,7744
O'zini_ayblash	5,4615

Ushbu metodikamiz natijasiga ko'ra sinaluvchilarimizdagi o'z ichki dunyosini chuqur anglash darajasi shkalasi bo'yicha maksimal 11balidan, natijalar bo'yicha o'rtacha qiymat 6,7 ball bilan pastroq ekanligi aniqlandi. Talabalarda o'zini ichki olamiga nazar tashlash pastroq bo'lishi, yosh davriga ko'ra o'spirinlik davridan katta mustaqil jamiyatga qadam qo'yganligi va o'z "Men"ligini kompleks rivojlanish davri boshlanishi hisoblanadi.

O'ziga ishonch shakasi bo'yicha ko'rsatgichlar maksimal 14 balidan o'rtacha qiymat- 9,4205 balni tashkil etdi. Natijaga ko'ra talabalarda o'ziga mustaqil, irodali munosabati o'rtachadan pastroq ekanligi aniqlandi. Yuqoridagi o'ziga bo'lgan ichki nazarning pastroq bo'lishi o'ziga nisbatan mustaqil munosabatining ham pastroq bo'lishiga bog'liq. O'zini-o'zi boshqarish-7,8487ball, o'ziga nisbatan munosabat- 6,3282 ball, o'zini baholash-9,9179 ball, o'ziga bog'langanlik- 6,6000 ball, ichki nizokashlik-7,7744 ball, o'zini ayblash-5,4615 balni tashkil etgan. Yuqoridagi o'zini anglash komponentlarining o'rtachadan pastroq ekanligi aniqlandi. Demakki, talabalarda o'ziga bo'lgan munosabat ko'rsatgichlari pastroq darajada.

O'zini qabul qilish shkalasi, talabalarimizda o'zini qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish o'rtacha darajada rivojlangan. Ya'ni talabalarimizda o'zlarini hohish-istaklari va kamchiliklarini ochiq qabul qilishi yuqoridagi sifatlariga nisbatan yuqoriroq.

Keyingi ishimizda talabalarda Kunning "Men kimman" metodikasini o'tkazish orqali ulardagi oiladagi, professional va ijtimoiy ro'llarda o'z "Men"ligini namoyon qilishini aniqladik. (2-jadval)

Table 2. Kunning “Men kimman” metodikasi natijalari


Ko'rsatgichlar	O'rtacha qiymat
Oilaviy ro'l	3,0564
Professional ro'l	2,2308
Ijtimoiy rol	2,8821
Feminin sifat	1,7487
Maskulin sifat	1,8359
Neytral sifat	7,3795

Yuqoridagi jadval natijalarga ko'ra, talablarimizni o'z menligini namoyon qilishi ko'proq oilaviy ijtimoiy muhit bilan bog'liq shaxs sifatlarini namoyon qilishini ustun qo'ygan holda o'z vazifasini va shaxs xulq-atvorini namoyon qilishi aniqlandi. Keyingi o'rinda professional va ijtimoiy ro'llarda o'z “Men”ligini namoyon qilishi aniqlandi. Demakki, talabalarimizda ijtimoiy muhitdagi “Men”lik timsoli oilaviy ro'lda aks etishi ustunroq ekan.

Sinaluvchilarimizda ushbu davrda ko'proq qaysi sifatning yuqori ekanligini o'rganganimizda, aksariyat sinaluvchilarimizda jins jihatdan teng ko'rsatgich bo'lishidan qat'iy nazar, feministik va maskulin sifatlar uyg'unlashgan neytral sifatlar: xushchaqchaq, sadoqatli, mehnatkash, dangasa, kelishgan, hazilkash kabi ko'rsatgichlari yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

NATIJALAR

Ishimizni keyingi qismida o'tkazgan metodikamizni jins jihatdan farqli xususiyatlarini tahlil qildik. (2-diagramma)



Yuqoridagi diagrammada aks etganidek, qizlarda ochiqlik, o'ziga ishonch, o'ziniqabul qilish, o'zini baholash, ichki nizokashlik jarayoni, oilaviy ro'llar, ijtimoiy ro'llar erkaklarga nisbatan yuqoriroq ekanligi anqilandi. Erkaklarda ayollarga nisbatan professional ro'llar ustorq namoyon bo'lishi, feministik va maskulistik sifatning ham yuqoriroq ekanligi aks etdi.

MUHOKAMA

Jins jihatdan olingan natijalarimizni tahlil qiladigan bo'lsak, ayollarda erkaklarga nisbatan o'ziga munosabat ishonchli

darajada yuqoriroq nayomon bo'lar ekan. Ayollar erkaklarga nisbatan ijtimoiy muhitda faol munosabatda bo'lganligi bois, o'ziga munosabat ko'rsatgichlari va “Men”lik timsoli ijtimoiy ro'llarda ko'proq namoyon bo'lishi bilan izohlashimiz mumkin.

XULOSA

Umumiy xulosamizga ko'ra, o'tkazilgan tadqiqotimizdan olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, talaba shaxsida o'zini anglash jarayoni komponentlari hamda “Men”lik timsolini namoyon qilishi, yosh xususiyatiga ko'ra o'rtachadan pastroq ekanligini, ushbu yoshdagi shaxslarda “Men”lik timsoli va anglanganlik jarayonlarining kompleks adekvat va yuqori emasligini, hali sinaluvchilarimiz bevosita va bilvosita ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda kognitiv rivojlanishi bosqichida kechayotganligi bilan izohlashimiz mumkin. Ya'ni ushbu davrda talabalarning ta'lim faoliyati bilan bog'liq bilim olishi bilan birga kognitiv rivojlanishi, o'zini mustaqil “Men”ligini namoyon qilishiga qulay shart-sharoitning bo'lishi, o'zini adekvat anglash jarayonlari shakllanishiga asosiy omil bo'la oladi deyishimiz mumkin. Shunday qilib, o'zini-o'zi anglash individning o'zini tashqi dunyodan ajratishi, unga bo'lgan o'z munosabatini anglashi, shaxs sifatida o'zini va o'z xatti-harakatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, qiziqish va intilishlarini anglash va baholash jarayonidir. Ushbu jarayon ijtimoiy muhitda kognitiv rivojlanish bilan bog'liq rivojlanadigan psixologik jarayon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- G'oziyev E. Umumiy psixologiya: Darslik. – T.: Universitet, 2002. – 96b.
- Manuel London, Valerie I.Sessa, and Loren A.Shelley Developing Self-Awareness: Learning Processes for Self and Interpersonal Growth. Annu.Rev.Organ.Psychol.Organ.Behav. November 18,2022 261p
- Золотарева О. С. Влияние материнской депривации на развитие я-концепции детей подросткового возраста//дисс. автор. кандидата психологических наук. Астрахань – 2007. –22с
- David G. Myers C. Nathan Dewart. Psychology. Worth Publishers 41 Madison Avenue New York, NY 10010. 2015.- 186p.
- Abdunazarova Sh.Sh. Maktabgacha yoshda bolaning o'zini-o'zi anglashning psixologik xususiyatlari // Psixol. magistr diss.avtref:-T.,2021. –65b.